

QORAQALPOQ XALQINING MEHMON KUTISH MADANIYATI**Seytjanov Islom**

Ajiniyoz nomidagi NDPI Tarix fakulteti 1-kurs talabasi.

Akiminiyazova Gulnaz PhD.

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14956351>

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnik taraqqiyoti bilan aholining ijtimoiy turmush tarzi o'zgarib, yangiliklar, o'zgarishlar yuz bermoqda. Aholi hayotiga kirib kelayotgan kundalik iste'mol buyumlari, uning nomlari, madaniy yangiliklar, bir xalq bilan ikkinchi xalqni yaqinlashtirib, o'xshatib borayotgan bir paytda insonning ma'naviy olamiga ham ta'sir ko'rsatishi shubhasiz.

O'zbekistonimiz o'z mustaqilligiga erishgandan keyingi tub o'zgarishlarning asosiy maqsadi ham milliy qadriyatlarimizni qayta tiklash, ularni ta'lim-tarbiyada qo'llash va rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Har bir xalqning o'z madaniyati va tarixi, milliy urf-odati, ma'naviy dunyosi bo'ladi.

Xalq ma'naviyati, ijtimoiy, madaniy jihatdan barkamol bo'lmagan davlat, tabiiy-iqtisodiy boyliklari naqadar ko'p bo'lib, harbiy qudratli bo'lgani bilan u ulug' davlat bo'la olmaydi.

Qoraqalpoq xalqi ham o'zining ko'p ming yillik ma'naviyati, madaniyati, ilm-fani, adabiyoti, san'atining tarixiy ildizlariga ega.

Milliy an'alarimizning bugungi kungacha yetib kelgan va doimiy qo'llanib kelinayotgan ko'rinishlari bor.

Xalqimiz hayotiga necha asrlar davomida singib ketgan an'analarning bugungi kunda bir oz unutilib, unutmay bizga yetib kelganlari mazmun-mohiyati jihatidan biroz o'zgarishga uchradi.

Qoraqalpoq xalqining an'anasi boy. Jumladan, qoraqalpoq xalqida mehmon kutish bilan bog'liq an'analari ham bor. Urf-odat - xalq tomonidan barqarorlashtirilgan tadbirlardan iborat bo'lib, u an'anaviy madaniyatning yaxlit bir qismini tashkil etadi. Qoraqalpoq xalqining ham shunday qadriyatlari negizida mehmon kutishga oid ko'plab urf-odatlar mavjud.

Xalqimizning "*yig'gan, terganning to'yga buyursin*" degan duosi to'yning fazilatli va sharafliligi ekanligini, unga tayyorlanish ezgu niyat, mehr-oqibat, mehnatni talab etishini, shunday qilib, odamni yumshoq, xushmuomala qilib tarbiya qilishini ko'rsatadi.

Qoraqalpoq xalqining mehmon kutish an'anasida mehmon bilan uy egasining munosabati juda katta ahamiyatga ega. Alohida chaqirilgan mehmonlar "*Quwis- uyga quruq kirma*" deb, munosib sovg'a olib kelishadi. Bu - mehmonning uy egasiga nisbatan hurmatini bildiradi.

Qoraqalpolarda mehmonning biror joyga sovg'a olib borishi azaldan shakllangan an'ana.

Mehmonga kelgan odam uy egasining qadrli dasturxoniga o'tirib, mehmonga qilgan xizmatiga yarasha sovg'a oladi, uy egasi unga sovg'a berib, hurmat ko'rsatadi. "*Quwis - uyidan quruq chiqmaslik*" qoraqalpoqning mehmondo'stlik xususiyatining ifodasidir.

Qoraqalpolarda mehmon - ma'naviy birdamlik va mehr-oqibatning belgisidir, shuningdek, mehmon kutish - insonparvarlikning ifodasi. Mehmonning ma'nosi faqat ichkilikbozlik emas, o'z dunyosini boyitib, ma'naviy muloqot o'rnatishda.

Mehmonga borish - yaqin kishilarning ahvolini bilish, ularni qo'llab-quvvatlash, quvonchidan bahramand bo'lish, yurt hayotidan xabardor bo'lish demakdir. Bu an'ana tufayli qoraqalpoq xalqining birligi, hamjihatligi saqlanib, har bir inson bir-birini tushunib yashagan.

"Qudayi qonaq". Qudayi qonaq deganimiz – maxsus chaqirilmagan, ammo kutilmagan yerdan kelgan mehmon. Qoraqalpoqlar qudayi qonaqni hech qachon ranjitmaydi, sababi bunday mehmonni xudo yetaklab kelgan deb hisoblaydilar. Qudayi qonaq uyga baraka, rizq-nasiba olib keladi deb ishongan, agar ranjisa, uyning rizq ro'zi kamayadi, dasturxonning barakasi ketadi degan ishonch mavjud. Qoraqalpoqlar: "*Qudayi qonaqni izidan Qidir ota keladi*", "*Qirqning biri Qidir*"- deb hisoblaydi, chuning uchun bunday mehmonga hurmat ko'rsatilib, uni rozi qilishga harakat qilinadi.

Qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri, O'zbekiston qahramoni I.Yusupov o'z ijodida qoraqalpoq xalqining qalb olamini, ruhiyatini, azaldan o'ziga xos bo'lgan yashash va tafakkur tarzini teran aks ettirgan shoir. Shoirning ushbu mavzuga bag'ishlangan she'rlarida bag'rikeng, musavvir, ishchan, mehnatsevar, qiyinchiliklarga bardoshli, qaysar, mehmondo'st, or-nomus va an'anaga sodiq, zukko qoraqalpoq xalqining mental qiyofasini yaratgan.

Atnı bar tórt buwınnan, aytarda tilge awır.

Óziń kirttay-aq xalıqsan, dástúriń pilge awır.

Shoirning "Qoraqalpoqni ko'p maqtama ko'zimcha", "Qoraqalpog'iston kutadi seni", "Kunchiqar yo'lovchiga", "Mening uyim" qo'shiqlarida qoraqalpoqlarning mehmondo'stligi kuylanadi:

Bul jerde xalıq qonaq ushın jaralğan,

Balasınan qımtap, saqlar qonaqqa.

Qoraqalpoq xalqida mehmonning ulug'vorligi yuqori qo'yilgan. U rizq-nasiba, ulug'an'ana, urf-odat. Shuning uchun "*Mehmon otangdek ulug*" degan ibora bor. Uyga mehmon kelib, hamma yig'ilib olgandan so'ng yoshi ulug' kishi duo qilib, kelgan mehmonni dasturxonga taklif etadi.

Qoraqalpoqlar azaldan mehmondo'stligi bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi.

Mehmondo'stlik barcha xalqlarga xos bo'lsa-da, qoraqalpoqlarning mehmondo'stligi o'ziga xos. Taomning yaxshisini farzandlaridan yashirib mehmon uchun saqlab qo'yadigan, "*topsa bittasini, topmasa ikkitasini so'yib qo'yadigan*," mehmonni otasidek ulug', xudodan bir yosh boladek katta ko'rib siylaydigan, oldiga ovqat qo'yib, ikkala qo'lini bo'sh qoldiradigan (bu xususiyat boshqa xalqlarda unchalik uchramaydi. Bunda mehmon o'zini erkin sezadi), mehmon kutib olishni san'at darajasiga ko'targan bu ulug' xalqning mehmon kutib olishi haqiqatan ham boshqachadir.

Qoraqalpoq xalqi juda saxovatli xalq bo'lib, xalqimizda "*topsa bittasini, topmasa ikkitasini*" degan hikmatli gap bor. Uyda bor-yo'g'i bitta buzoq echkisini so'yib taom tayyorlab, mehmonga ziyofat bergan. Chunki mehmonni xafa qilib qo'yish odobdan emas.

Qoraqalpoqlar "*mehmon otangdek ulug'*" deb hisoblab, "*mehmonga yolg'iz otini so'yib bergan*". Bu tog'risida Qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri I.Yusupov quyidagicha ko'rsatadi:

Biziñ xalıqtıñ kewlin qaysı bir gezde,

Heshqanday húkimdar,

Heshbir patsha, xan

Miymandoslıq degen duwalı sózdi

Billahiy, hesh qashan jawlap almağan¹

Mehmondo'stlik yaxshi fazilat. Xalqimizda "*Mehmon kelsa, rizqi bilan keladi*" - degan ibora bor. Chunki uyga mehmon kelsa, dasturxon usti to'ldirib yoyiladi. Ota-onasi bolalarga qattiq gapirishmaydi. Mehmonga uzoqdan yoki yaqindan mehmonga kelganingda uy sohiblari qalbini ochib, iliq kutib olishsa! Uy egalariga yaxshi, chunki ularni izlab, uylariga mehmon bo'lib keldi-ku! Bir-birini sog'inib, izlab kelish - qanday yaxshi fazilat!

Mehmondo'st xalqimiz "*Kutilmaganda birov kelib qolsa, uyalib qolmaymiz*," deb, uyidagi oziq-ovqat zaxiralarining kamayib qolishini doimo nazorat qilib o'tirgan. Aka-uka, qarindosh-urug', tanish-notanish deganday, doimo qoraqalpoq xonadonlaridan mehmonlar arimaydi.

Qoraqalpoq xalqida qarindosh-urug'lar, ovullar o'z qo'llaridan kelgancha yordam berib: kim go'shtini, kimi bug'doyidan, kimidir jo'xorisidan degandek, har kim o'zida bor narsasidan yordam bergan.

Ba'zi boy, badavlat, turmushi yaxshi oilalar to'yni yaxshi o'tkazishni o'z bo'yniga olgan.

Shunday qilib butun bir qishloq yangi bir yosh oilaning tiklanishiga yordam beradi. Xalqimiz to'ylarda mehmon kutishda isrofgarchilikka qarshi kurashgan.

¹ I. Yusupov. Kewil kewilden suw isher . Nókis "Qaraqalpaqstan" 1971

To'yda yoshlarning, yoshi ulug'larning orasida bo'lishi ular bilan suhbatlashib, yaxshi so'zlashishlari, ularga xushmuomalalikni o'rganishlariga imkon beradi. Shunday ekan, yoshlar to'ylarda bo'linmasdan yoshi kattalar bilan bir stolda o'tirib, gap-so'z eshitib birga ovqatlanishlari ularni ko'rgan-bilgan qilib tarbiyalash imkonini beradi.

Qoraqalpoq xalqi azaldan sovg'a-salomlarga boy bo'lib, mehmon bo'lib kelgan. Mol so'yib, *mehmon oshi* berishning o'ziga xos namunasi bor.

Odatga kelgan mehmonga yoshiga, yo'liga, el-yurt orasidagi obro'-e'tiboriga qarab mol so'yib kutishardi. Bu "*mehmon oshi*" deyilardi. Unda mehmonning soniga qarab qo'y, echki so'yib mehmon qiladilar. Bu yetarli darajada mol-mulki bor oilalarga qaratilgan.

Qoraqalpoq an'anasida mehmon kutishni bilmagan kishini "ko'rimsiz, tarbiyasiz," deb atagan.

Irim-(urf,odat)- irim xalqning yaxshi niyati bilan tilaklari, avlodlariga tarbiya va madaniyatni o'rgatish maqsadida kelib chiqqan urf-odat. Xalq an'analari ikki turga bo'lib qaraladi.

"*Oq yo'l*" - muvaffaqiyat, omadlilik timsoli. Birov kelganida quvonchli voqea bo'lsa, "oq yo'l," "qadaming muborak" deyishadi. Bu bir tarafdin kelgan kishiga hurmat, ikkinchi tarafdin, kelgan kishining yaxshi niyatli kishi ekanligini maqtash va u kelgan kishi bilan yaxshilik ham kelishiga ishonch;

"*Awiz tiyiw (og'iz tekkizish)*" - dasturxon tepasiga kelgan odam, taomga burchli tarzda og'iz tekkizishi kerak ya'ni taomdan bir yoki ikki qoshiq yeyishi kerak. Xalqimizning an'anasiga ko'ra, uyga kelgan odamga eng kamida "*non tutiladi*" Bunda, mehmon og'iz tekkizmasa "*Quwis uyidan quruq chiqma,*" yoki "*qizing tashlab ketar,*" "*yigiting tashlab ketar,*" - deb hazil qilish mumkin.

Qoraqalpoqlarda o'zlariga qo'yning boshini tortgan oqsoqollar bilan qo'y-echkinining boshini maydalab kesgan kattalar bolalarga yaxshi niyat bilan quloq, ko'z, til berishgan.

Qulaq beriw. Fotiha qilib, bosh kesgan yoshi kattalar avvalo kallaning bo'lagidan kesib olib, uydagi eng yosh bolalarning biriga: «Ol, bolam, yaxshi inson bo'l, so'z tingla, kattalarning gapini yerda qoldirmaydigan yaxshi azamat bo'lib yetishgin!» - deb beradi. Mana, bu «*qulaq beriw*» - deb ataladi.

Keksalarning bolalarga quloq kesib berishining katta ta'limiy-tarbiyaviy va psixologik ahamiyati bor. Yoshligidan keksalarning qo'llaridan quloq yeb, nasihatlarini tinglab o'sgan bola kattalarni siylab, kichiklarni hurmat qiladigan, so'zni tinglab, so'z qadrini tushunadigan, aqlli, bilimdon, azamat bo'lib o'sadi.

Til jediriv- Odatda keksalar tilning uchini "ol, bolam, kattalarning dilini ol, so'zga chechan bo'l!" - deb tilni berib yediradi. Bu "*til jediriv*" deb ataladi.

Awiz ashar (iftorlik) – qo‘ni-qo‘shni yoki ko‘ngli yaqin kishilarning ro‘zador kishini kechki ovqatga chaqirib, duosini olishi.

Qonaq asi- Har bir qoraqalpoq oilasiga kelgan insonga yaxshi taomlardan mehmon oshi beriladi.

Quyriq-bawir – qudalarga tayyorlanadigan asosan dumba va jigardan tashkil topgan taom.

Bu taomning tortilishi yangi tushgan qudalar rishtasining mustahkamligini dalillovchi hujjat sifatida tushuniladi.

Sarqut. Mehmonga chaqirilgan yoshi katta momolar, kelini bilan nabiralariga, shirinliklar va boshqa narsalar oladi. Uni nabiralariga bo‘lib beradi. Bu asosan bolalarim ham shunday yaxshi kunlarni ko‘rib yursinlar degan ma’noda qilinadi.

Názir. Uy egasi katta ish boshlaganda, uy qurganda yoki boshqa bir xayrli ish boshlashdan avval qishloqdagi yoshi keksalarni mehmonga chaqirib, ularga taom tortishi va duolarini olishi “*názir*” - deb yuritiladi.

Shay quyur. Qishloqqa yangi tushgan kelinning qo‘lidan choy ishish odati.

Taomlarni tortish madaniyati

Otaning tarbiyasini, onadan o‘rnak olgan inson an’analarga bepisandlik bilan qaramaydi. Shu asnoda, taomlarni tortishning ham o‘ziga yarasha qoidalari bor.

Agarda taom tortiladigan vaqtda shu qoidalarga amal qilinmasa, yaxshi taom tortilganing foydasi yoq. Bu kelgan mehmonlarga hurmatsizlik bo‘lib hisoblanadi.

Buning uchun ota-bobolarimizning an’ana va madaniyatiga qat’iy e’tibor qaratib, shuni amalga oshirganimiz to‘g‘ri.

1. Boshni erkak, yoki shu uyning bosh egasi olib kelgani to‘g‘ri. Ya’ni, bu "*uy egasiz emas*" degan ma’noni anglatadi.

2. Boshni tumshug‘ini oldinga burib olib kelishi lozim, chunki, qo‘y tumshug‘i bilan oldinga qarab otlaydi, bu kelgan mehmonga "*ishing oldinga qarab ilgari lasin*" degan yaxshi niyat, tilakni bildiradi.

3. *Shekesin qasqalaw* - boshning to‘rtga teng bo‘linishi, bu "*to‘rt qiblasini teng bo‘lsin*", degan ma’noni beradi.

4. Boshni birinchi ushlagan odam boshning o‘ng qulog‘ini kesib olib, shu uyning eng yoshi kichigiga uzatadi. Chunki, o‘ng quloq bolalarning nasibasi hisoblanadi. Boshning peshonasidan kesib olib, shu uyning o‘tib kelayotgan o‘g‘liga beradi, bu "*kelajakda elning boshi bo‘lsin*," - degan ezgu niyatini bildiradi.

5. Boshning tishi qoqib olingan, tili to‘liq tozalangan bo‘lishi kerak, tishi bilan olib kelinsa noxush ko‘rinish berib, kelgan mehmonga nisbatan hurmatsizlikni bildiradi. Oldinlari

kelgan mehmonga avvaldan aytmay yurgan xafagarchiligi bor bo'lsa, tishi qirilmagan holda olib kelinar edi. Buni kelgan mehmon ham tushunib, ovqatlanib bo'lingach, uy egasidan qanday xafagarchiligi borligini so'rab, kechirim so'rab, yarashib uylariga qaytadigan bo'lgan.

6. Odamlar xatolardan emas, bilimsizlikdan boshqalarga gap so'z bo'lishi mumkin.

Chuning uchun qoraqalpoq xalqida yosh yigitlar, kelinlar xalqning har bir urf-odati, ananasi zahirida yotgan falsafani teran tushungan holda harakat qilishga urinadilar. Bu odat haligacha qoraqalpoq oilalarida saqlanib kelinmoqda.

Qoraqalpog'istonda shimoliy va janubiy tumanlarda mehmon kutishning o'ziga xos xususiyatlari

Qoraqalpog'istonda shimoliy va janubiy tumanlarda mehmon kutish madaniyati bir-biridan farq qiladi. Bularni uzoq vaqtdan beri shu yerda yashovchi yoshi katta odamlar bilan suhbatlashib, ma'lumot olishga muvaffaq bo'ldik.

Xo'jayli tumani. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mehmon kutish qoraqalpoq xalqida avloddan avlodga o'tib kelayotgan an'analardan biridir. Misol tariqasida Xo'jayli tumanida istiqomat qiluvchi ko'cha mullasi Uzakov Xalmurza to'y marosimlarida mehmon kutib olishni shunday ta'kidlab otdiki, - *"To'yga kelgan mehmonlarga mehmon joy berib, ularni yaxshi kutib olish uchun, to'ydan oldin maslahat beriladi va mehmonlar taqsimlanadi"*. To'yxonaga yordam tariqasida har bir xonadon kelgan mehmonlarni o'zlari kutib oladi. Odatda to'yxonadan osh beriladi. Ba'zi hollarda to'y egasidan hech narsa olmay, o'z hisobidan mol so'yib (qo'y, echki) o'zlari mehmonni kutib yuboradilar. Hatto ba'zi hollarda esa *"Uydan quruq chiqma deb"* ularni sarpolab (yopinchiq, mato, ro'mol va h.k.) ham yuboradi.

Qorao'zak tumani. Xo'jayli tumanidan farqli ravishda Qoraqalpog'istonning shimoliy tumanlaridan birida yashovchi qishloq oqsoqoli Torejanov Duysenbayning mehmonlarni kutib olish bo'yicha bergan ma'lumotlariga ko'ra: *"To'y-ma'rakaga kelgan mehmonlarni kutib olish uchun ma'raka berilayotgan joydan deyarli hamma narsa (dasturxon uchun) beriladi"*. Bu tumanda toy berilayotgan joydan mehmonlarga mehmon oshlari beriladi. Berilgan taomga go'shtni to'g'ri taqsimlab berishadi. Shu bilan birga unga qo'shimcha ravishda mehmonlarni kutayotgan uy hisobidan yana bir taom beriladi.

Kegayli tumani. Bu tumanda ham deyarli to'y-ma'raka qilgan xonadondan tantanaga kelgan mehmonlarni kutib olish uchun deyarli hamma narsa beriladi. Kegayli tumaning qishloq oqsoqoli Atamuratov Aqmuratning aytishicha, *"Bu tumanda, mehmon kutib olishda mehmon joyiga 10-15 kishidan bo'lib, uy to'lsa, keyingi uyga mehmonlar bo'lib yuboriladi"* – deb ta'kidlab o'tdi.

Umuman olganda, qoraqalpoq xalqining mehmondo'stlik madaniyati o'ziga xos. Bu xususiyatlari bilan boshqa qardosh xalqlardan ajralib turadi. Mehmonga uyning to'rini, taomning

eng yaxshisini berib, shundan xursand bo'lish Qoraqalpoq xalqining azaliy fazilatlaridan biridir. Mehmonni ochiq ko'ngillik bilan kutib olish odamgarchilik, o'z-aro hurmat belgisi gina emas, balki burch hamdir. Mehmon kelmaydigan uy yoqimsiz ko'rnadi. Chuning uchun uyga mehmon kelsa quchoq ochib tik oyoqda turib xizmat qiladilar. Agar qo'lidan kelsa mol so'yib, qo'shnilarini mehmonning hurmati uchun uyiga taklif qiladilar. *"Kelguncha mehmon uyalar, kelgandan so'ng mezbora"* deganlariday, mehmon uy egasi ayniqsa ayol kishi uchun bir sinov sifatida ko'rinadi. Shuning uchun qoraqalpoq ayollari uyat bo'lib yurmasin deb, hamma narsasini mehmon uchun asrab avaylaydi. Qoraqalpoq xalqida yana bir maqol bor *"Miyman az otirip kóp sinaydi"*. Uning ozi esa keyin butun elga taraydi. Shu boisdan bu mehnatkash xalq azal-azaldan mehmon kutish madaniyatiga alohida e'tibor qaratib kelgan.

REFERENCES

1. Qoraqalpaq xalq etopedagogikasi Nókis. Bilim 2010
2. Bazarbaev J. Dáwletova Q. Ádeptanıw. N. «Bilim». 1992
3. Bazarbaev J. Danalıǵı gózzallıqqa ulasqan shayır. Nókis «Bilim» 2008.
4. I. Yusupov. Kewil kewilden suw isher . Nókis "Qoraqalpaqstan" 1971.
5. K.Mámбетov. Qoraqalpaqlardıń etnografiyalıq tariyxı. Nókis. Qoraqalpaqstan 1991
6. MDM №1 Uzakov Xalmurza-ko'cha mullasi. Xo'jayli tumani Shagala ko'l MFY Sazanli ko'chasi 123-uy
7. MDM №2 Torejanov Duysenbay- qishloq oqsoqoli. Qorao'zak tumani Akademik Sabir Kamalov OFY Shitli qishlog'i 35-uy
8. MDM №3 Atamuratov Aqmurat - qishloq oqsoqoli Kegayli tumani Aqtuba OFY Elibay qishlog'i 20-uy